

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021 - yil 1 - oktabr holatiga 873,8 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 12,8 ming kishiga yoki 1,5 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 372,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,6 %), qishloq aholisi soni 501,3 ming kishini (57,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021 yil yanvar– sentabr

- Aholi soni **12,8 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **17,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,1 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **5,6 mingta nikoh** va **1,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2021 yil yanvar-sentabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2020-2021 - yillar 1– oktabr holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)

	2020 - yil	2021 - yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	857,1	873,8	101,9
Guliston sh.	91,3	93,3	102,2
Shirin sh.	18,9	19,0	100,5
Yangiyer sh.	43,9	44,9	102,3
tumanlar:			
Oqoltin	52,7	53,7	101,9
Boyovut	131,1	133,3	101,7
Guliston	73,6	75,5	102,6
Sayxunobod	78,1	79,6	101,9
Mirzaobod	74,6	76,5	102,5
Sardoba	66,7	67,9	101,8
Sirdaryo	129,6	131,6	101,5
Xovos	96,6	98,5	102,0


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021 - yil 1 - sentabr holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 133,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 % ni) va Sirdaryo tumanida 130,4 ming kishini (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 19,0 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 44,9 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020 - yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,5 % ni, Guliston tumanida 2,6 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 0,5 % ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1– oktabr holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2021- yil 1– oktabr holatiga, foizda , dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2021- yil 1– oktabr holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)

	erkak	ayol
Sirdaryo viloyati	438,8	435,0
Guliston sh.	46,7	46,6
Shirin sh.	9,3	9,7
Yangiyer sh.	22,3	22,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	27,0	26,7
Boyovut	67,5	65,8
Guliston	37,3	38,2
Sayxunobod	39,8	39,8
Mirzaobod	39,8	36,7
Sardoba	34,4	33,5
Sirdaryo	65,5	66,1
Xovos	49,2	49,3

Hududlar kesimida aholi zichligi (2021- yil 1– oktabr holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



Demografik holat


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2021 - yilning yanvar-sentabr oylarida 17,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,6 promilleni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan 2,1 promillega ko'paygan (2020 - yilning yanvar -iyun oylarida 24,5 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2020 - yilning mos davriga nisbatan Guliston shahar (24,0 promilledan 31,7 promillega), Oqoltin tumanida (23,5 promilledan 28,0 promillega), Yangiyer shahrida (22,7 promilledan 26,1 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Mirzaobod tumanida (27,6 promilledan 27,9 promillega) qayd etildi.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar– sentabr)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2021 - yil yanvar– sentabr)

	2020 - y.	2021 - y.	O'sish sur'ati % da
Sirdaryo viloyati	15591	17243	110,6
Guliston sh.	1633	2186	133,9
Shirin sh.	254	297	116,9
Yangiyer sh.	740	871	117,7
tumanlar:			
Oqoltin	920	1114	121,1
Boyovut	2377	2543	107,0
Guliston	1396	1441	103,2
Sayxunobod	1504	1528	101,6
Mirzaobod	1544	1564	101,3
Sardoba	1279	1358	106,2
Sirdaryo	2211	2461	111,3
Xovos	1733	1880	108,5


Demografik holat

Vafot etganlar

2021- yilning yanvar – sentabr oylarida 3,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

yanvar – sentabr



2021- yilning yanvar – sentabr oylarida 169 ta 1 yoshgacha go'dakiar o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 tirik tug'ilganga go'dakiar o'lim koeffitsiyenti 10,4 promilleni tashkil etdi.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 1 yoshgacha vafot etganlar



Nikoh. 2021 - yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020 - yilning mos davriga nisbatan Guliston shahar (47,0 %), Sayxunobod tumanida (4,3 %), Sirdaryo tumanida (6,8 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish Guliston (29,5 %), Mirzaobod (25,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2021 - yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,6 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2020 - yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer shahar (66,1 %), Xovos (66,2 %) va Oqoltin (43,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar - sentabr)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	5580	8,6
Guliston sh.	922	13,4
Shirin sh.	86	6,1
Yangiyer sh.	333	10,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	325	8,2
Boyovut	825	8,3
Guliston	438	7,8
Sayxunobod	504	8,5
Mirzaobod	398	7,0
Sardoba	378	7,5
Sirdaryo	838	8,6
Xovos	533	7,3

Demografik holat

Hududlar kesimida ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar– sentabr)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	1036	1,6
Guliston sh.	163	2,4
Shirin sh.	24	1,7
Yangiyer sh.	93	2,8
tumanlar:		
Oqoltin	63	1,6
Boyovut	139	1,4
Guliston	80	1,4
Sayhunobod	58	1,0
Mirzaobod	72	1,3
Sardoba	48	1,0
Sirdaryo	173	1,8
Xovos	123	1,7

Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-sentabr)


	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2020 - y.	2021 - y.	O'sish sur'ati % da	2020 - y.	2021 - y.	O'sish sur'ati % da
Sirdaryo viloyati	5826	5580	95,8	803	1036	129,0
Guliston sh.	627	922	147,0	144	163	113,2
Shirin sh.	93	86	92,5	27	24	88,9
Yangiyer sh.	343	333	97,1	56	93	166,1
tumanlar:						
Oqoltin	336	325	96,7	44	63	143,2
Boyovut	954	825	86,5	107	139	129,9
Guliston	621	438	70,5	72	80	111,1
Sayxunobod	483	504	104,3	46	58	126,1
Mirzaobod	532	398	74,8	62	72	116,1
Sardoba	414	378	91,3	49	48	98,0
Sirdaryo	785	838	106,8	122	173	141,8
Xovos	638	533	83,5	74,0	123	166,2

Migratsiya. 2021- yil yanvar - sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,3 ming kishi bo'lib, 2020 - yilning mos davrida minus 1,6 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2020 yil yanvar-sentabr	2021 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	4,7	6,5
Ko'chib ketganlar	6,3	7,8
Migratsiya saldosini	-1,6	-1,3

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Guliston shahar (minus 1,3 ming kishi), Boyovut tumanida (minus 0,5 ming kishi) qayd etildi.



Viloyat statistika boshqarmasi

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **N. Yuldoshev**
(67) 236-86-32